

## “NAVOIY NIGOHI TUSHGAN” SHOIRLAR IJODINING G‘OYAVIY-BADIIY TALQINI

*Shohsanam Rayimova*

*Samarqand davlat universiteti*

*mustaqil tadqiqotchisi*

### Annotatsiya

Ushbu maqolada Navoiy nigohi tushgan ijodkorlardan ayrimlari haqida soʻz boradi. Navoiy nigohi tushgan shoirlar deyilganda “Navoiyning nigohi tushgan” toʻplamidan oʻrin olgan ijodkorlar ijodi tahlilga tortilgan.

**Kalit soʻzlar:** Gadoiy, Sakkokiy, Atoiy, Lutfiy, Yor obrazi, sharq adabiyoti.

Alisher Navoiy oʻzining “Majolis un-nafois” risolasida oʻzbek (turkigoʻy) shoirlari haqida faqat maʼlumotlar keltirmasdan, turli millat vakillari sanalgan shoirlar ijodidan naʼmunalar ham keltiradi. Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” (459 ijodkor haqida maʼlumot mavjud) hamda “Nasoyim ul-muhabbat” asarida 44 oʻzbek shoiri, yuzlab boshqa millat shoirlari haqida maʼlumot keltirib oʻtgan. Yuqorida qayd etib oʻtilgan asarlardan tashqari Alisher Navoiyning shuningdek, “Muhokamatul lugʻatayn”, hamda “Xutbai davonun” asarlarida ham baʼzi shoir, yozuvchilar haqida maʼlumotlar berib oʻtgan. Biz masalaning muhim bir jihatiga eʼtibor qaratishimiz kerakki, u ham boʻlsa “Majolis un-nafois” asarining aynan ijodkorlar haqida yaratilgan maxsus tazkira yoʻnalishidagi asardir, biroq bu degani Alisher Navoiy faqat “Majolis un-nafois” asarida ijodkorlar haqida maʼlumot bergan-u, boshqa asarlarida esa maʼlumot yoʻq, degan fikrdan yiroq boʻlmogʻimiz kerak. Alisher Navoiy tilga olgan ijodkorlar bir necha asarlarida qayd etilgan yoki boʻlmasa faqat birgina asarida maʼlumot keltirilgan ijodkorlarga boʻlinadi. Jumladan, Ahmad Yugnakiy haqida “Nasoyim ul-muhabbat”da shunday maʼlumotlar keltirgan: “...Va aning tili turk alfozi bila mavoiz va nasoihqa goʻyo er mish. Xeyli elning muqtadosi er mish. Balki aksar turk usulida hikmat va nuqtalari shoeʼdur. Nazm tariyqi bilan aytur er mish; aning favoyididindur.

Bayt:

Soʻngakka iliktur, eranga bilik.

Biliksiz eran ul iliksiz soʻngak...”<sup>1</sup> (“Nasoyim ul-muhabbat”dan).

Mazmuni: Suyakning suyak ekanligidan dalolat beruvchi muhim xususiyati uning ichidagi iligida boʻlsa, insonda bilim boʻlishi kerak. Bilimsiz inson iliksiz suyak kabidir, iliksiz suyakka esa qoʻl urilmaydi, yaʼni undan hech kimga foyda yetmaydi. Ushbu baytlar orqali adib insonlarni maʼnaviyatli boʻlishga chorlamogʻda. Alisher

<sup>1</sup> М.Али, Б.Қосимов, Р.Нурматова Навоийнинг нигоҳи тушган... Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти-1986. 6-бет

Navoiy ham o‘zining “Xamsa” dostonlaridan “Hayrat ul-abror”da shuningdek, “Mahbub ul-qulub” kabi asarlarida Ahmad Yugnakiy ijodida bo‘lgani singari pandnoma ruhi alohida o‘rin tutishi bilan qimmatlidir, biroq Alisher Navoiy ijodining o‘ziga xosligi shundaki, u har bir holatni dostonida kerakli hikoyatlar bilan asoslab o‘tgan. “Hibatul haqoyiq” asari o‘z nomi bilan haqiqatga boydir. Adib o‘z asari mobaynida boshdan oxir odob va axloq, saxovat, tilning insonga eng katta do‘st ham dushman ham bo‘la olishi mumkinligini alohida ta’kidlab o‘tadi. Ahmad Yugnakiy ijodining pandnomaga boy bo‘lgan jihatlari bilan milliy ma’naviyatimiz yuksalishiga o‘zining alohida hissasini qo‘shgan.

“Muhabbatnoma” muallifi sanalgan Muhammad Xorazmiy haqida “Majolis un-nafois” asarida ma’lumot berilgan bo‘lsa, Sakkokiy haqida esa ham “Majolis un-nafois” asarida ham “Xutbai davonun” asarlarida ma’lumotlar keltiradi. “...Husn ta’rifida ulug‘roq xolg‘akim, turklar meng ot qo‘yupturlar, alar (sart) ot qo‘ymaydurlar. Turk bu ta’rifni bu nav ado qilibdurkim,

Bayt:

Aningkim, ol enginda meng yaratti,

Bo‘yi birla sochini teng yaratti.”<sup>2</sup>

Alisher Navoiy “Muhokamat-ul lug‘atayn” asarida keltirgan yuqoridagi baytni kimning qaysi asaridan olganligi va muallifi xususida hech qanday ma’lumot aytib o‘tmagan. Ushbu bayt aynan Muhammad Xorazmiyning “Muhabbatnoma” dostonining hamd qismidan olingan hamda bu o‘rinda ijodkor Tangrini madh eta turib, uning kun va tunni teng qilib yaratganligiga ishora qilgan. Alisher Navoiy ijodiga nazar tashlasak unda ham kun va tunning yaratilishiga oid bo‘lgan betakror misralarga duch kelishimiz mumkin. “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida Alisher Navoiy har bir tilning o‘ziga xosliklari hamda tushunchalarni qanday ifodalanishiga oid fikrlarini asarlardan namunalar keltirish orqali izohlagan. Bir o‘rinda Muhammad Xorazmiy asaridan ham bayt keltirib o‘tgan va uni tarkibidagi birliklarni tahlil jarayoniga tortgan. Muhammad Xorazmiy asaridan Alisher Navoiy kabi zamonasining ‘quyosh’laridan sanalgan ijodkorlar o‘z asarlarida namunalar keltirayotgan ekan, demak buning zamirida Muhammad Xorazmiy ijodi ham o‘z davridayoq shuhrat tutganligidan dalolatdir.

Mavloni Lutfiy haqidagi ma’lumotlar Alisher Navoiyning bir qancha asarlarida uchraydi. Jumladan, “Majolis un-nafois” asarida Lutfiyning ijodi, ikki tilda (ham forsiy ham turkiy tilda) ijod qilganligi, shuningdek turkiy tildagi ijodi, xususan, turkiy tilda yaratilgan devoni mashhur bo‘lganligi haqidagi ma’lumotlar berilgan bo‘lsa, “Nasoyim ul-muhabbat”da esa Lutfiyning hayoti, necha yil umr ko‘rgani haqidagi ma’lumotlar mavjud. “Majolis un-nafois”da Alisher Navoiy haqida shunday deydi: “... Ammo turkiyda shuhrati ko‘prak erdi va turkcha devoni ham mashhurdur va mutaazzirul javob matla’lari bor, ul jumladin...

<sup>2</sup> Алишер Навоий. Муҳокаматул луғатайн. Мукаммал асарлар тўплами 14-том Тошкент 1967- йил, 112-бет

Yana biri bukim:

Sayd etti dilbarim meni oshufta sochtin,  
Soldi kamand bo‘ynuma ikki qulochtin.”<sup>3</sup>

Ya’ni, meni mashuqa sochi bilan ovladi, bo‘ynimga ikki qulochi bilan sirtmoq soldi deyilmoqda. Oshiq mashuqaning uzun sochlariga oshiq bo‘lib qolgan, shu qadar mashuqaga ashaqa bo‘lib qolganligidan oshiq mashuqa meni sochidan sirtmoq qilib ovladi, sirtmoq soldi ushbu o‘rinda oshiqning inon ixtiyori o‘zidan ketganligi, yo‘qotganligini ifodalamoqda. Alisher Navoiy o‘zining asarlarida keltirgan hikoyatatlardan birining qahramoni sanalgan Shayx San‘on tarso qizga oshiq bo‘lib, hatto dinidan chiqib cho‘chqaxonada cho‘chqaboqar bo‘lish darajasigacha borib yetganligi haqida hikoya qilinadi. Ya’ni kishi oshiq bo‘lib qoldimi, demak u erkini, qolaversa o‘zini ham o‘zi bilmagan holda mashuqa ixtiyoriga topshirib yuboradi. Ishq uni qay tomon boshlasa o‘sha tomon uning uchun to‘g‘ri yo‘l hisoblanib qolaveradi. Yuqoridagi baytda keltirilgan qahramon ham oshiqlik holatini sirtmoqqa tushib qolgan hamda undan ozod bo‘la olmayotgan kabi tasavvur qilyapti. “Majolis un-nafois”dagi ma’lumotlardan yana Mavlono Lutfiyning ijodi borasidagi bir ma’lumot ayon bo‘ladi. U ham bo‘lsa, Mavlono Lutfiy bir g‘azalni boshlab qo‘yadi-yu, biroq vafot etganligi bois uni nihoyasiga Abdurahmon Jomiy (Mahdumiy Nuran) yetkazib qo‘yadi.

Alisher Navoiy o‘zining tazkirasini yaratar ekan qalamga olgan ijodkorlaridan mabodo biror adib bir bayt aytib adabiyot tarixida qolgan bo‘lsa, o‘sha baytni ham nazardan chetda qoldirmagan. Masalan, “xush axloqlikda Xuroson va Samarqand mulkida yagona”, “saromadi zamona” sanalgan Mirzobekning “Majolis un-nafois”da bayti keltirilganligi hamda Alisher Navoiy o‘zining devoniga ham kiritganligi fikrimizning yorqin isbotidir. Mana o‘sha bayt:

“Ko‘zing ne balo qaro bo‘lubtur,  
Kim jonga qaro balo bo‘lubtur”<sup>4</sup>

Ushbu baytni o‘z g‘azalining boshlanmasi sifatida olib Alisher Navoiy shu baytning asl shakl shamoyilini saqlab g‘azal yozadi hamda uni Mirzo Kenjabekniki deya e’tirof etadi. G‘azal nihoyatda ta’sirli bo‘lib, kishining tuyg‘usinigina emas, balki aqlini ham shoshtirib qo‘yadi. Baytlarda boshdan oxir tardi aks san’ati yuzaga keladi. Bu ham o‘z navbatida g‘azalning o‘ziga xos ta’sir kuchini oshirishga xizmat qiladi. Mashuqaning ko‘zi balo, ofatga tenglashtirilyapti. Baloga qiyos qilinishining sababi shundaki, balodan insonga azob-uqubat yetadi, bu borada mashuqa ko‘zining ham balodan hech bir farqi yo‘q, ya’ni oshiq mashuqaning ko‘zi qora ekanligidan dardga mubtalo bo‘lgan.

Alisher Navoiy o‘z asarini shu qadar xolis yaratganki, asarda u keltirgan ijodkor haqida boshqa adiblarning fikri qanday u bilan “hisoblashib” o‘tirmagan.

<sup>3</sup> Аlisher Navoiy. *Мажолис ун-нафоис*. Мукаммал асарлар тўплами 12-том Тошкент 1967 йил, 61-бет

<sup>4</sup> М.Али, Б.Қосимов, Р.Нурматова *Навоийнинг нигоҳи тушган...* Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти-1986. 6-бет

Agarda ijodkorning asari Alisher Navoiyga ma'qul bo'lgan bo'lsa, biroq mashur bo'lmagan bo'lsa, uni ham o'z munosabati bilan birga qo'shib aytib qo'ya qolgan. "Mavlono Amiriy turk erdi va turkcha she'ri yaxshi voqe bo'lubdur, ammo shuhrat tutmabdur. Va bu bayt aning «Dahnoma» sidindur:

Ne yemakdin, ne uyqudin solib so'z,

Yemakdin tuyub, uyqudin yumib ko'z.

Va forsiyda Shayx Kamol tatabbu'i qilibdur. Bu matla' aningdurkim:

Ro'zi qismat har kase az aysh baxshi xud satand,

G'ayri zohid k-u riyozatho kashidu xushk mand.

Aning qabri Badahshon sari Arxang saroyidadir..."<sup>5</sup>

Tarjimasi: Qiyomat kuni har kim qilgan ezgu amallariga ko'ra mukofotlanadi. Zohid bu dunyoda qanchalar qiyinchiliklar chekkan bo'lmasin, u hech narsaga erisha olmaydi. Sababi zohid bu dunyoda toat ibodat qilishidan muddao jannatga kirish bo'ladi, shu yo'lda zahmat chekib umrini o'tkazadi. Allohning vasli esa Allohning jamolini ko'rishni istaganlar hamda uni sevuvchilar, neki mashaqqat chekkan bo'lsalar barcha barchasi uni vasliga yetishmoqni maqsad qilganlar uchundir. Shu o'rinda Hazrat Alisher Navoiyning bir ruboiysida ham lirik qahramon unga Alloh vaslidan boshqasi kerakmasligiga urg'u berilgan o'rinlar mavjud.

"Zohid sanga – hur-u manga – jonona kerak,

Jannat – sanga bo'lsun, manga – mayxona kerak.

Mayxona aro soqi-yu paymona kerak,

Paymona necha bo'lsa to'la, yona kerak." ("G'aroyib us-sig'ar")

Alisher Navoiyning "G'aroyib us-sig'ar" devonidan o'rin olgan bu ruboiy ham oshiqning birdan bir murodi Allohning vasli ekanligidan darak bermoqda. Ishqiy mavzudagi ruboiylardan biridir. Ishq shunday o'ziga xos tarzda kuylanganki, Olloh so'zi biror misrada qo'llanilmagan, biroq mazmuni to'g'ri tahlil qilinsa, ruboiyning haqiqiy ishq haqida ekanligi ayon bo'ladi.

Sakkokiy. "Mavlono Sakkokiy Movarounnahrdindur. Samarqand ahli anga ko'p mu'taqiddurlar va bag'oyat ta'rifin qilurlar... bu matla'ni anga isnod qilurlarkim:

Ne nozu bu, ne shevadur, ey jodu ko'zluk sho'xshang,

Kabki dariy tovsuda yo'q albatta bu raftoru rang.

Qabri ham ul sori o'qdur..."<sup>6</sup>

Mashuqa shu qadar nozik va go'zalki, uning oldida kaklik hamda tovsuning go'zallik ramzi bo'lmay qolishi turgan gap. Ma'lumki, mumtoz adabiyotda mashuqaning go'zalliklarini ta'riflash uchun uning qomatini sarv daraxtiga, ko'zlarni ohu ko'ziga, nargisga, chiroyli qadam bosishini kabki dariyga (Mavlono Lutfiyning

<sup>5</sup> Алишер Навоий. Асарлар. Ўн беш жилдлик, ўн иккинчи жилд. Тошкент., 1966 й. 22-бет

<sup>6</sup> М.Али, Б.Қосимов, Р.Нурматова Навоийнинг нигоҳи тушган... Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти-1986. 168-бет

tashbehi, “Ne bo‘lursan?” radifli g‘azalida shunday o‘xshatish berilgan), labini la’lga, yuzini gulzorga, og‘zini g‘unchaga qiyoslash mavjud. Sakkokiy hattoki, mashuqani rang-barang tusga kiruvchi go‘zal tovusdan ham a’lo deya aytmoqda. Mashuqa shu qadar go‘zalki, unda bor go‘zallik kabki dariyda ham tovusda ham yo‘q. Alisher Navoiy shuningdek, “Xutbai davonun” Sakkokiyning nomini Lutfiy bilan yonma-yon keltirib, birining ijodi Turkistonda va yana birining g‘zaliyoti Iroq va Xurosonda mashhurligi va devonlari mavjudligi haqida ma’lumotlar beradi. Alisher Navoiy keltirgan ma’lumotlarga qaraganda Sakkokiyning muxlislari Sakkokiyning shuhratiga shuhrat qo‘shmoq uchun hatto Mavlono Lutfiyni Sakkokiy she’rlarini o‘zlashtirib olishda ayblagan. Biroq bu bo‘htondan boshqa narsa bo‘lmagan.

Ijodkorning taxallusi Sakkokiy bo‘lgan degan qarashlar mavjud. Sakkokiy so‘zining ma’nosi “sakkok” pichoqchi so‘zidan olingan. Ijodkorning taxallusi borasida ilm-fanning jonkuyar, fidoyi olimalaridan biri M.Hasanova quyidagi fikrlarni yozadi: “... Sayroniy” so‘zi arab alifbosida – سیرانی shaklida yozilsa, “Sabroniy” so‘zi – سبرانی shaklida yoziladi. Ya’ni, “yoy” va “be” harflarining bitta nuqta hisobiga farqlanishini hisobga olsak, bu so‘z qo‘lyozmada noto‘g‘ri yozilganligi (ya’ni, bir nuqta tushib qolganligi) oqibatida, “Sayroniy”ga “aylanib qolgan” bo‘lishi mumkin. Demak, shoir nafaqat Sabronda ma’lum vaqt yashagan, balki shu yerda tug‘ilgan va shuning uchun ham Sabroniy nisbasi bilan atalgan.”<sup>7</sup> Ijodkorning yashagan davri temuriylar hukmronligi davriga to‘g‘ri keladi. Devonining ikki nusxasi Britaniya muzeyida va O‘zFA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanadi. Sakkokiy o‘ndan ortiq qasida yozib o‘zbek adabiyotida bu rivojlanishida ma’lum rol o‘ynagan.

Haydar Xorazmiy. “Mavlono Haydar –turkigo‘y, aning (Sulton Iskandar Sheroziyning) modihi ekandur. Bu aning masnaviysidindurkim:

Himmat elidur yadi bayzo degan,  
Er nafasidur dami Iso degan...”<sup>8</sup>

Haydar Xorazmiy XIV asrning oxiri XV asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan. U temuriylar davrining saroy shoirlaridan bo‘lgan. U Nizomiy Ganjaviyning asari ta’sirida “Maxzan ul-asror” asarini yaratgan. Haydar Xorazmiy o‘zining “Maxzan ul-asror” asari orqali didaktik adabiyot rivojiga ulgan hissa qo‘shdi. Asarda odob-axloq masalalariga juda katta ahamiyat berilgan, qolaversa umuminsoniy bo‘lgan fazilatlar ulug‘langan. Haydar Xorazmiy o‘z asarini 1409-1414-yillarda yaratgan. Shuningdek, Nizomiy Ganjaviy asarining ayrim boblarini erkin tarjima qilgan holda o‘z asariga kiritadi. Haydar Xorazmiy haqidagi ma’lumotlar tazkiranavislardan Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro”da qimmatli ma’lumotlar berilgan. “Maxzan ul-asror” dostonining bir qo‘lyozma nusxasi Londonning Britaniya muzeyi fondida

<sup>7</sup> M.Хасанова.Саккокий (Сайронийми? Саброний?!). «Шарқ юлдузи», 2011 йил 6-бет

<sup>8</sup> М.Али, Б.Қосимов, Р.Нурматова Навоийнинг нигоҳи тушган... Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти-1986. 186-бет



saqlanadi. Uning ilk nashri 1858-yil Qozonda, hozirda qayerda ekanligi noma'lum bo'lgan qo'lyozma asosida amalga oshirilgan. Haydar Xorazmiy dostoni bo'yicha Hodi Zarif,<sup>9</sup> Abduqodir Hayitmetov,<sup>10</sup> N.Mallayev,<sup>11</sup> J.Sharipov,<sup>12</sup> N.Abdullayev<sup>13</sup> va boshqalar tadqiqot ishlari olib borgan.

XV asrda yashab ijod etgan ijodkorlardan yana biri Atoiydir. Atoiy o'z hayoti davomida Samarqand, Hirot hamda Balxda umr kechirgan. 260 g'azalni o'z ichiga olgan devoni bizgacha yetib kelgan. Ijodkor g'azallaridan namunalarni 1927-yilda A.N. Samoylovich e'lon qilgan. Hodi Zarif 1948-yilda "Navoiy zamondoshlari" to'plamida Atoiyning 88 g'azalini chop etgan. Atoiy g'azallari 1958-yilga kelib oradan 10 yil vaqt o'tib devon holatida nashr qildirilgan. Atoiy haqida ilmiy tadqiqot ishlari olib borib, uning ijodini atroflicha o'rgangan tadqiqotchilardan biri E.Rustamovdir. Alisher Navoiy "Majolis un-nafois" asarida Atoiy haqida shunday deydi: "Mavlono Atoyi Balxda bo'lur erdi. Ismoil ota avlodlaridindur, darveshvash va xxushxulq munbasit kishi erdi. Turkigo'y erdi. O'z zamonida she'ri atrok orasida ko'p shuhrat tutti. Bu matla' aningdurkim:

Ul sanamkim, su(v) yaqosinda paritek o'lturur,  
G'oyati nozukligindin suv bila yutsa bo'lur."<sup>14</sup>

Alisher Navoiyning takidlashicha ushbu baytning qofiyasida aybi bor. Atoiy asosan turkiy tilda qalam tebratgan ijodkorlardandir. Atoiy o'z g'azalida mashuqaning go'zalligini madh etar ekan, uni suv bilan yutsa bo'ladi deb haddan tashqari nozik ekanligiga urg'u beradi. Va bu o'rinda litota san'atini yuzaga kelganligining guvohi bo'lamiz, ya'ni yorni haddan ortiq kichraytirib, yutib yuborsa bo'ladigan darajada deb ta'riflagan.

Sayid Ahmad XV asrning birinchi yarmida ijod qilgan ijodkorlardan biri hisoblanadi. U temuriylar sulolasiga mansub bo'lgan, biroq juda ham faqirona turmush kechirgan. Sayid Ahmad Sayidiy taxallusi bilan ijod qilgan. Ijodkorning ikki tilda ijod qilganligi haqidagi ma'lumotlar XV asr manbalarida qayd etilgan. U devon ham tartib bergan hamda noma janri taraqqiyotiga o'zining 1435-1436-yillarda yaratilgan "Taashuqnoma" ("Oshiqlik maktublari") asari bilan hissa qo'shgan. Sayid Ahmadning "Taashshuqnoma" asari Kamol Xo'jandiyning "Latofatnoma" asari ta'sirida bitilgan bo'lib, u o'n nomadan tashkil topgan. Alisher Navoiy Sayid Ahmad haqida shunday deb yozadi: "Sayid Ahmad Mirzo salim tab' va pok zehn kishi erdi. Xili mashhur nazmlari bor..." "Latofatnoma" aningdur. Bu turkcha matla'i yaxshi voqe bo'lubturkim:

Sayd etti firoqing meni murg'i sahariydek,

<sup>9</sup> Ходи Зариф. Навоий замондошлари. Тошкент 1948

<sup>10</sup> А.Хайитметов. Алишер Навоийнинг адабий-танқидий қарашлари. Тошкент 1959, 30-бет

<sup>11</sup> Н.Маллаев. Ўзбек адабиёти тарихи. Тошкент. «Ўқитувчи» 1965, 265-268-бет

<sup>12</sup> Ж.Шарипов. Ўзбекистонда таржима тарихидан. Тошкент, «Фан» 1965

<sup>13</sup> Н.Абдуллаев. Хайдар Хоразмий ва унинг «Махзан ул-асрор»и. Тошкент 1974

<sup>14</sup> М.Али, Б.Қосимов, Р.Нурматова Навоийнинг нигоҳи тушган... Т.: Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти-1986. 214 бет

Qil odamiliq, qilma nihon yuzni paridek.”<sup>15</sup>

Baytda lirik qahramon ayriliqdan aziyat chekayotgani, mashuqa insof qilib unga vaslini namoyon etishini o‘tinyapti. Oshiq mashuqa firoqida tong sahardagi tovuqdek bo‘lib qolgan. Biz bilamizki, parilar ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmaydigan, ular haqida turli tasavvurlar mavjud, biroq inson ularni o‘z ko‘zi bilan ko‘rish imkoniga ega emas. Baytda ta‘rifu tavsifi keltirilgan mashuqa ham xuddi pari kabi ko‘zga ko‘rinmay qolgani uchun oshiq undan odamiliq qilishini so‘ragan.

Gadoiy hayoti haqidagi ma‘lumotlar o‘z asarlarida hamda tazkirachikka oid bo‘lgan ayrim asarlarda yozib qoldirilgan. Ijodkorning taxallusi “Gado”, “Gadoiy” bo‘lib, uning asl ismi qachon dunyoga kelganligi haqidagi aniq ma‘lumotlar deyarli mavjud emas. Gadoiy devonining bizgacha yetib kelgan qo‘lyozma nusxasi Parij Milliy kutubxonasida saqlanadi. Gadoiy hayoti va ijodi bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilganda uning devoni asosiy manba vazifasini o‘tagan. Gadoiy hayoti va ijodi haqidagi ba‘zi ma‘lumotlar “Majolis un-nafois” asarida keltiriladi. Gadoiy ijodi bo‘yicha E.Rustamov<sup>16</sup>, Suyima G‘aniyeva<sup>17</sup> va Erkin Ahmad Xo‘jayevlarning olib borgan ilmiy tadqiqot ishlarida keltiriladi. Alisher Navoiy o‘z asarining uchinchi majlisida ushbu ijodkor haqida ayrim ma‘lumotlarni keltirgan. “Mavlono Gadoiy turkigo‘ydir. Bobur Mirzo zamonida she‘ri shuhrat tutti...Mavlononing yoshi to‘qsondin o‘tubdur. Bu matla’ aningdurkim:

Dilrabo, sensiz tiriklik bir baloyi jon emish

Kim, ani dardi qoshida yuz o‘lum hayron emish.”<sup>18</sup>

Ishq dardiga duchor bo‘lgan oshiq o‘z “tabibi”ga qarata hayot sensiz o‘lim bilan barobardir. U tag‘in shunday o‘limki, uning oldida odatdagi jismoniy o‘limlar hech nima emas. Bemor oshiqlik kasaliga chalinganki, uning dardiga faqat mashuqasi davo topa oladi xolos.

Umuman olganda Alisher Navoiy tomonidan “Majolis un-nafois”, “Nasoyim ul-muhabbat”, “Xutbai davonun”, “Muhokamat ul-lug‘atayn” kabi asarlarida yuqorida nomlari zikr etilgan ijodkorlarning hayoti va ijodi to‘g‘risida keltirilgan ma‘lumotlar bizga ularning asarlarini tahlil qilish jarayonida ilmiy jihatdan to‘g‘ri xulosalar chiqarishimiz uchun yaqindan yordam beradigan ilmiy manba vazifasini o‘taydi. Shuningdek, Alisher Navoiy qalamga olgan ijodkorlarning ijodida aks etgan Yor obrazini Alisher Navoiy tomonidan yaratilgan asarlarda keltirilgan Yor timsoli bilan qiyosan o‘rganish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

<sup>15</sup>М.Али, Б.Қосимов, Р.Нурматова Навоийнинг нигоҳи тушган... Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти-1986. 255-бет

<sup>16</sup> Э.Рустамов. Гадоийнинг бир қасидаси ва «Мажолис ун-нафоис»нинг ёзилиш тарихи. “Ўзбек тили ва адабиёти журналы, 1967, 2-сон.

<sup>17</sup> Шоир Гадоий. «Ўзбекистон маданияти» газетаси, 1962, 1-сентябр

<sup>18</sup> М.Али, Б.Қосимов, Р.Нурматова Навоийнинг нигоҳи тушган... Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти-1986. 264 бет

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. М.Али, Б.Қосимов, Р.Нурматова Навоийнинг нигоҳи тушган... Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти-1986. 255-бет
2. Э.Рустамов. Гадоийнинг бир қасидаси ва «Мажолис ун-нафоис»нинг ёзилиш тарихи. «Ўзбек тили ва адабиёти журналы, 1967, 2-сон.
3. Шоир Гадоий. «Ўзбекистон маданияти» газетаси, 1962, 1-сентябр
4. Ҳоди Зариф. Навоий замондошлари. Тошкент 1948
5. А.Ҳайитметов. Алишер Навоийнинг адабий-танқидий қарашлари. Тошкент 1959, 30-бет